

YoShLAR O'RTASIDA “ZAKOVAT” O'TKAZILDI



YoShLAR O'RTASIDA “ZAKOVAT” O'TKAZILDI

Saribozorcha mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchisi Muhib Azamjonov, 29-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori va maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari hamkorligida ta'lim dargohida maktabning yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida “Zakovat” intellektual o'yini o'tkazildi.

Maktab o'quvchilaridan tarkib topgan “Jasorat” va “Siyovush” jamoalari a'zolari hakamlarning savollariga aniq javob berishga harakat qilishdi. 20 ta savolga to'g'ri javob bergan “Siyovush” jamoasi bilimdonlari intellektual-shou g'olibi bo'ldilar.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-03-19 16:47:55